

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD-HUQUQ TIZIMIDA AMALGA
OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA MUAMMOLAR**

Narinbaeva Gulnora Karimovna

Toshkent davlat agrar universiteti, dotsent.

Isambaev Muhiddin Abdulvosid o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti, talaba.

***E-mail:** esanbaevmuhiddin@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16828806>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va mavjud muamolar tahlil qilinadi. Jumladan, sudlar mustaqilligi, sud amaliyotida bir birlikning buzulishi, sudyalarning ustidan tashqi bosimlar, korrupsiya holatlari va fuqarolarning adolatga bo'lgan ishonchi bilan bog'liq masalalar yoritiladi. Shu bilan birga, sud hokimiyatining mustahkamlanishi, qonun ustivorligi va inson huquqlarini taminlash yo'lida taklif va tavsiyalar ham ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Sud tizimi, sud mustaqilligi, korrupsiya, bir xillik prinsipi, sud amaliyoti, adolat, sudya javobgarligi, islohotlar.

Аннотация. В данной статье анализируются реформы и существующие проблемы в судебно-правовой системе Республики Узбекистан. Особое внимание уделено вопросам независимости судов, несогласованности судебной практики, внешнего давления на судей, случаям коррупции и снижению доверия граждан к правосудию. В статье также предложены рекомендации по укреплению судебной власти, обеспечению верховенства закона и защите прав граждан.

Ключевые слова: Судебная система, независимость судов, коррупция, принцип единообразия, судебная практика, справедливость, ответственность судей, реформы.

Abstract. This article analyzes the reforms and existing challenges within the judicial and legal system of the Republic of Uzbekistan. It focuses on issues such as judicial independence, inconsistency in court practice, external pressure on judges, corruption cases, and the declining public trust in justice. The article also presents recommendations aimed at strengthening judicial authority, ensuring the rule of law, and safeguarding human rights.

Key words: Judicial system, independence of courts, corruption, principle of uniformity, judicial practice, justice, judicial accountability, reforms.

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimida tubdan islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat rahbarining tashabbusi bilan adolatli va fuqorolar huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi sud hokimiyati shakllanishi yo'lida muhim qadamlar tashlandi. Jumladan, sudlarning mustaqilligini kuchaytirish, sudyalarning tayinlanish tizimi takomillashtirish, fuqorolarning sudga murojaat qilishini soddalashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va elektron sud tizimini joriy etish kabi yonalishlarda o'zgarishlar amalga oshirildi.

Xususan 2021-yilda yangi "sudlar to'g'risida" gi qonun qabul qilinib, sud tizimining mustaqilligini kuchaytirishga oid me'yorlar belgilandi. 2022 -yildan boshlab "E-sud" tizimi joriy qilinib, sud jarayonlarining ochiqligi va tezkorligini ta'minlashga qaratilgan texnologik yechimlar faoliyat ko'rsata boshladi.

Sudyalarning intizomiy javobgarligi tizimi qayta korib chiqildi, Oliy Sudyalar Kengashining vakolatlari kengaytirildi. Fuqarolik, jinoyat va ma'muriy ish yurituv tizimlari bo'yicha qonunlar zamon talablariga moslashtirildi.

O'zbekistonda sud mustaqilligi ta'minlanmaganliging asosiy muammolari

Pracatura va ijro hokimyatining sudlarga ta'siri va davlat ommaviy axborot vositalari hamda hukumat organlari ba'zida sudyalarga kerakli qarorlarni chiqarishga majbur qilish maqsadida noqonuniy bosim otkazadi.

Misol uchun 2025 yil fevral oyida Oliy Sudyalar Kengashi sud mustaqilligiga tahdid bo'lganini tanqid qildi. Va Chinoz tuman sud raisi bilan prakuror vakili o'rtasida mojaro kelib chiqqan, bu holat sud mustaqilligiga bo'lgan tashqi bosim sifatida qaraladi. Shunindek 2024 yilda 40 nafar sudya muddatidan oldin ishdan olinib, ba'zilar o'z xihishi bilan ketgan, boshqalari esa sud kodeksiga muvofiq bo'lmagan aralashuvlar natijasida lavozimidan chetlatilgan.

Sudyalar bir hil masalada har hil qarorlari koplalab tushunmovchiliklar keltiriib chiqyapti bu esa sud amaliyotida bir xillikni buzulishiga olib keladi. Misol uchun Oliy sud Plenumining 2017-yilgi "firibgarlikka oid ishlar boyicha sud amaliyoti to'g'risida" gi qarori vaqtincha amaliyotda ayrim sudlarda turlicha qo'llanayotgani tanqid qilgandi. Boshqa sudlar fuqarolik-huquqiy munobatlardagi nizolarni jinoyatchilik bilan aralashtirib, nato'g'ri kvalifikatsiya qilish holatlari aniqlandi, natijada Oliy sud yangi tahrirdagi qaror chiqarib, firibgarlik ishlarida yagona amaliyotni yo'lga qo'yishga intilmoqda, hamda 2024-yil 16 dekabrda oyida bolib yer bilan bog'liq jinoyatlarda jinoyatni aniqlash va jazo tayinlashda turli sudlarda qarama-qarshi yondashuvlar kuzatilgan.

Buning oldini olish uchun Oliy sud "Yer bilan bog'liq jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida" gi qaror chiqargan, 2018-yil 19 may kuni bo'lib otkan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlisida yagona sud amaliyotini shakllantirishga qaratilgan tushuntirishlar berildi. Protsessual normalarning bir xilda qo'llanmasligi

Fuqarolik va ma'muriy protsessual kodekslar qabul qilingach, sudlar ulardan turlicha foydalanmoqda. Masalan, fuqarolik va ma'muriy ishlarda protsessual normalarni to'g'ri hamda bir xilda qo'llash maqsadida Oliy sud Plenumi qaror loyihalari ishlab chiqildi.

Sud tizimida korrupsiya holatlari fuqarolarni sud-huquq tizimiga bolgan ishonchini pasayishiga olib keladi. O'zbekiston boyicha pora bilan bog'liq jinoyatlar 2021 yildan boshlab sezirarli pasaygan, lekn 2023 yildan ular yana kotarilgan misol uchun 06 dekabr 2023-yilda Surxondaryo viloyatida bir sud xodimi shaxsiy biznesmenning jazo ishlarini tiklash sharti bilan 6000\$ ning bir qismi berilganidan tashqari 2000\$ qo'shimcha talab qilgani aniqlangan va 2023-yilda O'zbekiston Milliy xavfsizlik xizmati tomonidan olib borilgan operatsiyada Oliy sud kriminal bo'limining katta konsultanti 10 000 AQSh dollariga pora olayotganda qo'lga olindi va yaqnda 2025-yil 13-may kuni Andijon viloyatidagi Xonobod shahar jinoyat sudi raisi Y.E. 30 000 AQSh dollari pora olayotganda ushlanib, sud vakolati bekor qilindi. Buning natijasida adolatning buzilishi, jamiyatning ishonchi yolqolishi va sud tizimining mustaqilligiga zarar yetadi.

Muamolarga yechimlar: Sudlar mustaqilligini kuchaytirish.

- Sud organlarini siyosiy, ma'muriy yoki boshqa tashqi bosimlardan himoyalovchi konstitutsiyaviy kafolatlarni amalda ta'minlash.
- Sudyalarni tayinlash va ozod etish mexanizmlarini mustaqil sudyalar kengashi orqali amalga oshirish.
- Sud qarorlariga aralashgan mansabdor shaxslarga nisbatan qat'iy javobgarlik choralarini belgilash.

Sud qarorlarining bir xilligini ta'minlash.

- Sud amaliyotida ilgari qabul qilingan qarorlar bazasi (pretsedentlar) asosida ish yuritish mexanizmini joriy etish.
- Oliy sud tomonidan muntazam ravishda sud qarorlari sharhlari, yagona metodik ko'rsatmalar e'lon qilinishi.
- Hududiy sudlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish uchun elektron monitoring tizimi joriy qilish.

Korrupsiyaga qarshi samarali choralar.

- Sud tizimida "komplaens nazorati" (ichki korrupsiyaga qarshi mexanizm)ni joriy etish.
- Sudyalarning moliyaviy holatini deklaratsiya qilish va tekshirish tizimini mustahkamlash.
- Sudyalar o'rtasida korrupsiya bo'yicha maxsus profilaktik treninglar o'tkazish.

Xulosa: O'zbekiston sud-huquq tizimida so'nggi yillarda bir qancha islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, tizimda haligacha yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Sudlar faoliyatidagi adolatsizlik, qarorlarning bir xilligiga amal qilinmasligi, sudyalar ustidan nazoratning yetarli emasligi, ularning poraxo'rlikka moyilligi va sudlarga tashqi bosimlar — bularning barchasi fuqarolarda sud-huquq tizimiga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirmoqda.

Yuqoridagi faktlar asosida aytish mumkinki, sud tizimidagi korrupsiya nafaqat adolatni buzadi, balki jamiyatda huquqiy ongning zaiflashuviga, ijtimoiy norozilikning ortishiga va xalqaro miqyosda davlat obro'sining tushishiga olib keladi. Shu bois, sudyalar tanlovining ochiq va shaffof bo'lishi, sudlar ustidan jamoatchilik va mustaqil institutlar nazorati kuchaytirilishi, qarorlar bir xilligini ta'minlash tizimi takomillashtirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. https://tashkenttimes.uz/national/15199-andijan-judge-arrested-while-receiving-30-000-in-bribe?utm_source
2. <https://www.uzdaily.uz/en/state-security-service-detains-two-court-employees-on-suspicion-of-corruption>
3. https://live.kun.uz/en/news/2025/02/21/supreme-judicial-council-highlights-ongoing-threats-to-judicial-independence?utm_source
4. https://www.kun.uz/news/2023/06/26/oliy-sud-plenumi-tomonidan-4-ta-yangi-qaror-qabul-qilindi?utm_source
5. https://uza.uz/oz/posts/oliy-sud-plenumining-yer-sud-xarajatlarini-undirish-bilan-bogliq-qarorlari-qabul-qilindi_668299?utm_source
6. <http://m.xabar.uz/uz/huquq/sudlov-tizimida-nima-yangiliklar-bolmoqda>
7. https://kun.uz/en/43980176?utm_source